



TEXNOLOGIYA DARSLARIDA “KLASTER” METODIDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

¹Samadova Mahbuba Nutfullo qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Sport va chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti
Texnologik ta’lim yo’nalishi 3-kurs talabasi
samadovamahbuba7579@gmail.com,

²Toshtemirova Umida Qobil qizi

Texnologik ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi
toshtemirovau5@gmail.com.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7869837>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2023

Accepted: 26th April 2023

Online: 27th April 2023

KEY WORDS

Innovatsion, texnologiya,
klaster modeli, mexanizm,
kompetensiya, innovatsion
metod, diversifikatsiyalash.

ABSTRACT

Texnologiya darslarida “Klaster” metodidan foydalanish, o’quvchi, talabalarni kasb-hunarga maqsadli yo’naltirib, ta’lim samaradorligini oshirish, taraqqiy etayotgan zamonda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash iborat.

Jahonda rivojlangan davlatlar bugungi kunda globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyotni mustahkamlashda asosiy etiborni ta’lim sohasini isloh qilishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Bu, o’z navbatida ta’lim tizimiga yangidan yangi innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalarni samarali tashkil etishdagi jarayonlar bilan kechmoqda. Rivojlangan davlatlar ta’lim sohasiga razm solar ekanmiz, ta’lim samaradorligini oshirish, yangidan yangi imkoniyatlar topish, o’quvchi, talabalarning ta’lim olishiga xizmat qiluvchi yangi mexanizm sifatida pedagogik texnologiyalarda klaster modeli amaliyotda tadbiq etilmoqdalar. Bu, albatta, jahon ta’lim shakllarini zamonaviy va innovatsion ilg’or mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, ta’limning texnologik taraqqiyot go’yalari bilan uzluksiz va izchillik tamoyillariga asoslangan klasterli yondashuv orqali qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shu jumladan texnologiya darslarida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida, o’quvchilarni ijodkorlikka, izlanishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarga asoslangan klaster metodini sohada qo’llash maktab, kollej, Universitet o’quvchi talabalarga nazariy bilim ko’nikmalarini amaliyotda tadbiq qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida o’zlarining ijodiy salohiyatini faollashtirishga imkon berib, zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan mutaxassis shaxslarini shakllantiradi.

Bugungi kunda ijodkor mustaqil fikrlovchi barkamol avlodni tarbiyalash Respublikamiz ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Keyingi yillarda jamiyatimizda yuz beradigan turli o’zgarishlar, o’z navbatida ta’lim rizimini ham chetlab o’tmayapti. Milliy ta’lim tizimiga nazar tashlar ekanmiz, yaqin chorak asrdan ta’lim sohasiga ko’plar amaliy o’zgarishlar bo’layotganiga guvoh bo’lamiz.



Respublikamizda ta'lim samaradorligini oshirish borasida har bir sohaga alohida e'tibor qaratilib, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi, talabalarning kompetensiyaviy imkoniyatlarini kasbga yo'naltirish orqali fan, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish bilan birgalikda ilg'or kadrlarni tayyorlashga innovatsion faoliyatini oshirishga yordam beradi.

Shu jumladan, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim fanlarini kengroq o'tilishi o'quvchi, talabalarning ijodkorlikka, izlanishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Ta'lim muassasalari texnologiya darslarida bunday metodni amaliyotda qo'llash orqali muassasaning menejmenti, zamonaviy ta'limning yangilanishi va rivojlanishini belgilab beradi.

Texnologiya darslarida "Klaster" metodidan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlari ishlab chiqishga yordam beradi.

Klaster metodi deganda – ta'lim jarayonining ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi o'qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar o'qib-o'rganishni yuqori darajada bo'lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas'uliyat, qo'llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ma'lumki, maktablardagi kasbiy ta'lim fanlari, shu jumladan texnologiya darslarida, dars jarayonlarining asosiy qismi amaliyotga asoslangan bo'lib bu jarayonlarda o'quvchilar olgan bilim, ko'nikma va malakalarini jamlab amaliyotda mustahkamlashtirishadi.

Har bir fan, ta'lim sohasida "Klaster" metodidan foydalanish orqali o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirib, barkamol shaxs bo'lib yetishida, ijodiy va intellektual salohiyatlarini oshishiga zamin yaratib beradi. Ayniqsa, texnologiya darslarida o'quvchilar o'zlarining bilim ko'nikmalari orqali erkin faoliyat yuritib dars jarayonlarida kichik mahsulot ishla chiqarish jarayonida o'zlarining kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttirib borishadi. Shunday qilib, o'quv muassasalar klasterida o'quvchilarning kasbiy o'zini o'zi belgilashini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari ushbu jarayonni ilmiy asosda amalga oshirishga, nazorat qilish va kerak bo'lganda uni hayotga tadbqiq etish uchun imkon beradi. Texnologiya darslarida klaster metodini amaliyotda qo'llash o'quvchilarga kelajakdagi kasbni ongli ravishda tanlashga, kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga, mavzuni tayyorlash darajasini oshirishga va turli xil faoliyat turlarida o'zlarining ijodiy salohiyatini faollashtirishga imkon beradigan ta'lim muhitini yaratishga hissa qo'shadi. Zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan mutaxassis shaxsini shakllantirish yordam beradi.

XULOSA

Dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish **ta'lim beruvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.** Amaliyot jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish ta'lim oluvchilarning zamonaviy jamiyatda ilg'or kadrlarni tayyorlashga zamin yaratib beradi. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo'nalishda ular tez vaqtda yaxshi natijaga erishishlari mumkin. Yana shu ham ma'lumki, o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan, ta'lim



beruvchi va ta'lim oluvchini qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishi ham juda katta ahamiyatga egadir.

References:

1. Abdulaxatov, A. R., Xudoyberganov, J.S., Qurbonova, M. E (2020). Образовательный кластер-как ресурс инновационного развития региона. Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў, 1(1), 84-89
2. Kutlimurotov, U. G. (2020). THE CLASSIFICATION OF NATIONAL MOVEMENT GAMES THAT TRAIN PHYSICAL QUALITIES AND WAYS TO TEACH THEM. International Engineering Journal For Research & Development, 5(8), 4-4.
3. Rejabov M. Y «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\ Volume: 1, ISSUE: 4
4. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804.
5. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), 805-808.